

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 5-oktabr, shanba,
115 (23.992)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Farosatni o‘rgatib bo‘lmaydi, u ota-onadan o‘tadi, oilada shakllanadi



Aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni

Yurtimizda o‘zini o‘zi boshqarish tizimini takomillashtirish, xususan, jarayonda xalqaro tajribalardan foydalanish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida azim Samarqandda shu nomdagi xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” g‘oyasi asosida tashkil etilgan anjumanda BMT, UNICEF, UNDP, UNODC, UNFPA, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari, xorijiy davlatlarning yurtimizdagi elchilari, yigirmadan ortiq mamlakat mutaxassislari ishtirok etdi.

Xalqaro konferensiyaning yalpi majlisida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari Akmal Saidov, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi raisi Malika Qodirxonova mamlakatimizda mahalla boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasidagi ishlar va uning samaralari haqida so‘z yuritdi. Xalqaro tashkilotlar vakillari, mahalla tizimi bilan ishlovchi vazirlik va idoralar rahbarlari mazkur tadbir va undan kutilayotgan natijalar haqida fikr bildirishdi.

— Faoliyatimizning asosiy maqsadi har bir insonning sog‘lom hayot kechirish va teng imkoniyatlarga ega bo‘lish borasidagi huquqlarini himoya qilish, - deydi BMT Aholishunoslik jamg‘armasining (UNFPA) O‘zbekistondagi doimiy vakili Nigina Abboszoda. – Yurtingizda bu mas’uliyatli vazifani bajarishda mahallalarning o‘z o‘rni bor. Mazkur institut nafaqat xalqingizning o‘ziga xos qadriyati, balki jamiyatingiz rivojiga xizmat qiladigan kuchli ijtimoiy tuzilma ham hisoblanadi. Agar unga keng vakolatlar berilib, faoliyati yo‘naltirib borilsa, natijalar bundan ham yaxshi bo‘ladi. Biz mahallalar bilan hamkorlik qilishdan manfaatdormiz.

Yalpi majlisdan so‘ng konferensiya “Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari tajribasi”, “O‘zini o‘zi boshqarish organlarida xotin-qizlar, yoshlar va bolalar manfaatlarining ta’minlanishi” singari shu’balarga bo‘lingan holda davom etdi. Ularda mahalla institutining faoliyatini yanada takomillashtirish, uning oila mustahkamligi, fuqarolar huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, yoshlarni munosib tarbiyalashdagi ishtirokini oshirish masalalari muhokama qilinib, ilg‘or tajribalar ommalashtirildi.

Anjuman oxirida tomonlarning konferensiya natijalariga doir yakuniy deklaratsiyasi imzolandi.

— Kompaniyamiz aholi xonadonlariga professional xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi va mamlakatda bu yo‘nalishning yetakchilaridan biri hisoblanadi, deydi Xitoyning "Gansu Lanmei Vocational Skills Training School" Co.,Ltd kompaniyasi bosh menejeri Yang Ji Fan. – Yurtingizda ham ayni tajribani yo‘lga qo‘yish, fuqarolarning yashash tarzi va sharoitlarini yaxshilashga hissa qo‘shish maqsadida taklif qilinganimizdan xursandmiz. Konferensiya hamkorligimiz yo‘lidagi muhim qadam hisoblanadi.

4-oktabr kuni konferensiya ishtirokchilari joylarga chiqqan holda “mahalla yettiligi” faoliyati bilan tanishdi. Birinchi manzil Samarqand shahridagi Charmgari mahallasi bo‘ldi. 3365 nafar fuqaro istiqomat qiladigan mahallada 4 ta xususiy o‘quv markazi, 52 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadi. Ayni kunda faollar asosiy e’tiborini mahalla infratuzilmasini rivojlantirish orqali aholining yashash sharoitini yaxshilashga qaratgan. Mutaxassislar faollar va fuqarolar bilan suhbatlashib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

— Konferensiya yaxshi o‘tdi, tayyorgarlik yuqori darajada, - deydi UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o‘rinbosari Joffriy Ljumba. – Shu’balarda mahallalar faoliyatini rivojlantirish, xususan, uning bolalar uchun nima qila olishi masalalarini o‘rgandik. Aytishim mumkinki, qadimiy bu tuzilma xalqingiz hayotida muhim o‘rin tutar ekan. U ayniqsa, yoshlarning xavfsizligi, ish va o‘qishi uchun zarur muhit yaratishi bilan ahamiyatli. Tadbirning amaliy qismida bunga yana bir bor amin bo‘ldik.

Ishtirokchilar Samarqand tumanidagi Konigil turizm mahallasi hamda mahalla servis kompaniyalari faoliyati bilan ham tanishdi. Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil etildi.

A.ORZIQULOV,
B.MUSTANOV (surat).

Kambag‘allikdan farovonlik sari

O‘tgan yili viloyatimiz hududi tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud sharoit, salohiyat va imkoniyatlardan kelib chiqib, besh toifaga bo‘lindi. Shunda Nurobod tumani to‘rtinchi, ya’ni jozibadorligi yetarli bo‘lmagan hudud deb topilgan edi. Bu nafaqat tadbirkorlik, ma’lum ma’noda shu tumandagi aholining yashash sharoitiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Sababi biznes uchun sharoit yetarli bo‘lmagan holda, infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni oshirish haqida gapirish qiyin. Xo‘sh, unda aholining daromadi qayerdan? Va bugunning eng dolzarb savoli: hududda kambag‘allik qanday qisqartirilyapti? Xizmat safarida buni aniqlashga harakat qildik.

Nurobodliklarga pul emas, sharoit kerak

Samarqand shahridan chiqishda elektron xarita oraliq masofani 90 kilometr deya ko‘rsatdi. Bu tuman markazigacha. Biz bormoqchi bo‘lgan chekka hududlarni qo‘shib hisoblaganda, yana shuncha yuriladi. Yo‘l-yo‘lakay tuman haqida ma’lumot to‘playmiz: Aholisi 163 ming nafarga yaqin. Yo‘llarining jami uzunligi 1800 kilometr. Shundan bor-yo‘g‘i 112 kilometri asfalt qilingan, 911 kilometri tosh va 781 kilometri tuproq yo‘llar. Aholining 17 foizi tabiiy gaz bilan ta’minlangan. Qolganlari suyultirilgan gaz baloni yoki o‘tindan foydalanadi. Bilishimizcha, hududning asosiy qismi sug‘orilmaydigan, qurg‘oqchil yerlar. Demak, o‘tin ham muammo.

“KAMBAG‘ALLAR 8,5 FOIZ, LEKIN BU REAL RAQAM EMAS”

Nurobodga kelib, dastlab tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi rahbari G‘ayrat Musurmonov bilan uchrashdik. Unga ko‘ra, bugungi holatda tumanda istiqomat qiluvchi 38,9 ming oiladan 6,7 mingtasi kam ta’minlangan, shundan 3298 tasi kambag‘al hisoblanadi.

— Bu oilalarning 13 ming nafar mehnatga layoqatli a’zolari bor, - deydi G‘ayrat Musurmonov. – O‘rganish davomida ularning asosiy qismi doimiy ish bilan band bo‘lsa-da, to‘liqsiz ish rejimida yoki kam maosh olib ishlayotgani, 2629 nafarining doimiy ishi yo‘qligi, 488 nafari tadbirkorlik bilan shug‘ullansa-da, daromadi kamligi ma’lum bo‘ldi. Eng ko‘p uchraydigan holat – oilada er-xotining kunlik topish-tutishi yaxshi, ammo rasmiy daromadi yo‘q. Ular o‘zini o‘zi band qiluvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, lekin bu oilaning real daromadini aniqlash imkonini bermaydi. Oqibatda ular kam ta’minlangan oila sifatida ro‘yxatda turaveradi.

Mas’ulning ta’kidlashicha, tumanda Prezident raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi vazifalar ijrosi doirasida ishlar boshlangan. Xususan, tumanning 10 ta eng eng og‘ir toifali mahallasi belgilanib, ayni kunda ularni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, barcha davlat idoralari va qator tadbirkorlik subyektlariga ljtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan 5 tadan oila biriktirilgan. Ular bu oilalardagi ijtimoiy muhitni o‘rganib, ularni kambag‘allikdan chiqarishda amaliy ko‘mak berib borishadi.



— Shunday oilalarni o‘rganishda turli vaziyatlarga duch kelyapmiz, - deydi G‘ayrat Musurmonov. – To‘g‘ri, haqiqatda ahvoli og‘ir, ozgina ko‘mak berilsa, o‘z yo‘lini topib ketadigan fuqarolar bor. Ammo tan olishimiz kerak, atay daromadini yashiradigan, boqimandalik kayfiyatidagi fuqarolar ham yo‘q emas. Ularga rasmiy ish joyini taklif qilsangiz, ishlamaydi, tadbirkorlik uchun kredit ajratsangiz, to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lamay, vaziyatni yanada og‘irlashtiradi. Bunday fuqarolar o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilib, reestrdan chiqarilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ijtimoiy yordam aniq manziliga yetib borishi kerak.

Ma’lumotga ko‘ra, ayni kunda hududda Prezidentning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, yil yakunigacha 2568 oilani reestrdan chiqarish, 4140 oilaning daromadini oshirish rejalashtirilgan.

(Davomi 2-sahifada) »»

INDALLOSINI AYTGANDA...

Nurislom TO‘XLIYEV,
O‘zFA akademigi:

– Turizm har qanday mamlakat iqtisodiyotiga daromad keltiradi. Lekin madaniy va tabiiy rasurslarga bosim ham o‘tkazadi. Ko‘pgina tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlari ommaviy turizmning salbiy ta'siridan aziyat chekishi ham mumkin.



Munosabat

Rag‘bat kuch berdi

Bu yilgi O‘qituvchi va murabbiylar kuni hayotimda o‘chmas iz qoldirdi. Prezidentimizning farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Bu unvon nafaqat menga, balki samarqandlik barcha pedagoglarga berilgan yuksak baho, deb bilaman.

Chunki keyingi yillar davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi, xalqparvarligi, ayniqsa, ziyolilarga alohida e’tibori tufayli o‘qituvchining maqomi oshdi, pedagogning huquq va majburiyatlari yuqori darajada kafolatlandi. Ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni mustahkamlandi.

Ziyoli kishi uchun xalqning, davlat rahbarining e’tirofidan-da yuksak mukofot bo‘lmasa kerak. Har yili kasb bayrami arafasida davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan yuzlab pedagoglar bu gaplarimga qo‘shilishiga ishonaman.

Ellik yillik pedagogik faoliyatim davomida katta tajriba orttirdim. Mamlakatimizning siyosiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib kelayotgan fuqaro sifatida aytishim mumkinki, muallim va ustozlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, ahamiyati ilgari bugungichalik bo‘lmagan.

Prezidentimizning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan bayram tabrigida ta’kidlangan mamlakatimiz oliy ta’lim tizimidagi islohotlar samarasiga oid raqamlarning o‘zi bu fikrimni isbotlaydi:

“Bugungi kunda o‘qituvchilarning ish haqi 2016-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 marta, professor-o‘qituvchilarning oylik maoshi esa 4,5 karra o‘sdi, oktabr oyidan pedagog xodimlarning ish haqi yana 15 foizga oshirildi.

Qisqa muddatda yurtimizda 135 ta yangi oliygoh tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetkazildi, tizimda qamrov darajasi 4 barobardan ziyod oshib, 9 foizdan 38 foizga yetdi”.



Birgina viloyatimizdagi oliy ta’lim muassasalari soni 16 taga yetdi (11 davlat, 5 ta nodavlat).

Muhimi, yurtimizda halol va fidoyi mehnat qilib, jamiyat rivojiga hissa qo‘shayotgan har qanday kasb egasi qadrlanmoqda. Ko‘rsatilayotgan bunday hurmat-e’tiborga loyiq bo‘lish, yanada jonbozlik ko‘rsatish esa yurtdoshlarimiz faoliyatining bosh mezoniga aylanmoqda.

Albatta, rag‘bat insonga kuch beradi, uni yangi marralar sari ruhlantiradi. Hozir oldimizda turgan muhim vazifalarni bajarishda bizdan fidoyilik va xalqimizni rozi qilishdek vazifalar turibdi.

O‘zimdan misol, ushbu faxriy unvon menga qancha kuch-quvvat bergan bo‘lsa, yelkamga shuncha katta mas’uliyat yukladi. Endilikda avvalgidan ham ko‘proq ishlashni maqsad qilib, yosh avlodga o‘z bilim va tajribamni o‘rgatishga bor kuch va salohiyatimni sarflayman.

Suyun KARIMOV,
Samarqand davlat universitetining o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi.

Tadbirkorlarga imtiyozli yer ajratishni qo‘llab-quvvatlaymiz

O‘ZLIDEP

"Urgut" erkin iqtisodiy zonasida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ko‘rsatilgan nomzodlarning tadbirkorlar hamda yirik kompaniyalar vakillari bilan uchrashuvi o‘tkazildi.

Uchrashuv avvalida O‘zLiDeP siyosiy kengashi ijroiya qo‘mitasi raisi Aktam Hayitov partiyaning 5 maqsad, 500 vazifadan iborat saylovoldi dasturi haqida so‘z yuritdi.

- Saylovoldi dasturimizda belgilangan ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish va shu orqali sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 barobarga, mehnat unumdorligini 2 barobarga oshirish, 115 milliard dollarlik yirik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirganmiz, - dedi A.Hayitov. - Jumladan, raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan korxonalarning eksport faoliyatini jadallashtirish, "Chip sanoati", sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar kabi ilg‘or tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqish masalalari partiyamizning diqqat markazida bo‘ladi. Shuningdek, kichik sanoat zonalarida investitsiya majburiyatini bajargan tadbirkorlarimizga yer uchastkalarini xususiylashtirishga ruxsat berishning qonuniy asoslarini yaratamiz. Salohiyatli tadbirkorlarga kichik va yoshlar sanoat zonalaridan 10 yilgacha bo‘lib to‘lash imtiyozi bilan yer ajratishni ham qo‘llab-quvvatlaymiz.

Uchrashuvda partiya saylovoldi dasturidagi boshqa muhim vazifalarga ham e’tibor qaratilib, ishtirokchilar 27-oktabr kuni bo‘ladigan saylovda O‘zLiDeP uchun ovoz berishga chaqirildi.

O‘zLiDeP viloyat kengashi axborot xizmati.

Har bir inson farovonligi uchun

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi joriy saylovlarda shunday shior bilan ishtirok etadi.

Shu bois joylarda tashkil qilinayotgan targ‘ibot tadbirlarida partiya o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va g‘oyalarni jamoatchilikka yaqindan tanishtirishga, nomzodlari dasturini keng yoyishga intilmoqda.

Partiyaning viloyat kengashi tomonidan tashkil qilingan shunday tadbirlardan biri Samarqand shahridagi istirohat bog‘ida o‘tkazildi. Unda yig‘ilganlarga Xalq demokratik partiyasining saylovoldi dasturi bo‘yicha tushunchalar berildi.

Kattaqo‘rg‘on shahridagi targ‘ibot tadbiri pedagogika kollejida bo‘lib o‘tdi. Tadbirda so‘z olganlar partiya maqsadlari aniq vazifalar ro‘yobiga qaratilgani bilan ahamiyatli ekanligini bayon qilishdi. Tadbirda xalq deputatlari shahar kengashi deputati T.Hamidov, partiyaning shahar kengashi raisi J.Shamsutdinov, Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali prorektori J. Abduraimov va partiyaning hududdan ko‘rsatilgan nomzodlari ishtirok etdi.

Ma’ruzachilar partiya va uning nomzodlarini targ‘ib qilish barobarida saylovning mamlakat hayotidagi ahamiyati, unda saylovchilarning faolligi natijalari haqida to‘xtalishdi. Yig‘ilganlarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytarishdi.

Ishtixon tumanidagi 1-son kasb-hunar maktabida saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Anvar Raupov oldiga qo‘ygan maqsad va rejalari, ularni amalga oshirish yig‘ilganlarga qanday naf keltirishi xususida so‘z yuritdi.

XDP viloyat kengashi matbuot xizmati.

Nurobodliklarga pul emas, sharoit kerak



Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Nurobod tumanida bo‘lib, viloyat hokimligi, boshqarma va idoralar mas'ullari ishtirokida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Muhokamada hududning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, belgilangan dastur va loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi. Jumladan, investitsiya dasturlari ijrosi, budjet tushumlari holati, muqobil energiya resurslaridan foydalanish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha soha mas'ullarining hisobotlari tinglanib, vazifalar belgilab berildi.

Viloyat hokimi ehtiyojmand oilalarni ish bilan ta'minlash muhimligi haqida to‘xtalib, bir martalik moddiy yordam muammoni hal qilmasligini aytdi hamda hududda kasanachilikni rivojlantirish zarurligini qayd etdi.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

UY CHEVARLIGIDAN SEX RAHBARLIGIGACHA BIR QADAM

Safarimizning amaliy qismiga o‘tsak. Birinchi manzil tumanning Amir Temur mahallasi bo‘ldi. Mahalladagi hokim yordamchisi Toshtemir No‘monovning ta’kidlashicha, mahallaning 56 oilasi reestrga kiritilgan. Ularda 37 nafar ishsiz fuqaro bo‘lib, shundan 12 nafari yoshlar, 15 nafari ayollar. O‘tgan vaqtda barcha ishsizlarga ish taklif qilingan ekan. Biroq ko‘pchilik ularda maosh kamligi yo boshqa sabablarni keltirib, ishlashdan bosh tortgan. Shu bois mahalla faollari ularni tadbirkorlikka jalb qilish yoki o‘ziga ma’qul boshqa kasblarga o‘qitish yo‘li bilan bandligini ta’minlash choralarini ko‘rmoqda.

Misol uchun, Munira Xo‘shbaqova yaqin-yaqingacha o‘z xonadonida chevarlik bilan shug‘ullanib, qo‘ni-qo‘shnilarining buyurtmalarini bajarish bilan cheklanar edi. Mahalla faollari unga tikuv sexini ochish uchun joy ajratilishi va kreditga tikuv mashinkalari olishida yordam berdi. Natijada ishbilarmon ayol mahallaning 10 nafar xotin-qizini ish va eng muhimi, yaxshi daromad bilan ta’minladi. Hozir ular aholining buyurtmalarini bajarish barobarida, mahsulot tayyorlab, bozorga chiqarishni boshlagan.

Shu mahallaning yana bir oilasining muqim yashash joyi yo‘q edi. Faollar maslahati bilan savobtalab fuqarolardan biri o‘z hovlisining bo‘sh turgan qismini shu oilaga berdi. Shuningdek, oilaning bir nafar a’zosi oshpazlikni o‘rganish sharti bilan ovqatlanish shoxobchasiga maoshli ishga joylashtirildi. Uyda qolgan a’zolar daromad qilishi uchun kredit mablag‘lari hisobiga 52 dona zotli tovuq berildi va issiqxona qurildi. Agar oila bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalansa, yashash sharoiti hech kimnikidan kam bo‘lmaydi.

— Kambag‘allikdan chiqish ko‘proq fuqarolarning o‘ziga bog‘liq, - deydi Toshtemir No‘monov. – Hukumat buning uchun barcha sharoitni yaratgan. Ishlamoqchi bo‘lganlarga ish, biznes qilaman, deganlarga vosita yoki pul berilyapti. Shunday ekan, harakatda barakat. Asta-sekin boqimandalar ham buni tushunyapti va imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilishyapti.

NURDUMLIKLAR OG‘IR HAYOTDAN CHARCHAGAN

Boqimandalik. Tumandaligimizda shu so‘z odatdagidan ko‘p ishlatildi. Shunday tasavvur paydo bo‘ladiki, ehtiyojmandlarning asosiy qismi atay ishlamaydi va boshqalar berganini yeb yotadi. Har holda aksar mas’ullarning fikri shunday ekan. Lekin yordam pullariga birorta inson shohona hayot kechirganini ko‘rmadik. Bizningcha, muammo odamlarning ishlashni xohlamasligida emas, balki ularga munosib ish va maosh taklif qilinmayotganligida. Yoki tadbirkorlik uchun sharoit yo‘qligida.

Bu fikrimizning isbotini tuman markazidan chiqib, chetroqdagi mahallalarni o‘rganganimizda ko‘rdik. Masalan, tuman markazidan 25 kilometr uzoqlikdagi Nurdum mahallasiga yetib borishning o‘zi katta mashaqqat ekan. Unga eltuvchi yo‘l shu qadar abgorki, uncha-muncha haydovchi bu yo‘lga kirib, texnikasini “azob”lashni istamaydi. 7 qishloqdan iborat bu mahallada 6 mingga yaqin aholi istiqomat qilar ekan. Eng qizig‘i, ana shu katta mahallada bor yo‘g‘i 7 nafar tadbirkor bor.

— Yashirib nima qilaman, 80-90 foiz fuqarolarimizning daromadi mavsumiy ishlardan, - deydi mahalla raisi Safar Tog‘ayev. – Yana nima qilishsin deysiz? Shu bilan kunini ko‘rayotganiga ham xursandmiz. Guvohi bo‘lganingizdek hududimizga kelishning o‘zi katta muammo. Suvsiz, yo‘lsiz bu yerda tadbirkorlik yoki sanoatni yuritib bo‘lmaydi. Odamlarimiz ish izlab chetga yoki boshqa tuman va viloyatlarga ketadi. Nurdumlik ustalarni poytaxtda ham yaxshi tanishadi. To‘g‘ri, uyda qoladiganlar chorvachilik bilan shug‘ullanyapti. Lekin bu ham tavakkal ish.

Nurdumning qurg‘oqchil yerlari faqat yomg‘ir va qor suvlaridan bahramand bo‘ladi. Chorvachilik ham shunga bog‘liq, yil yaxshi kelsa - daromadli, yomon kelsa - xarajatli. Bu tavakkalchilikda boyib ketish qiyin. Ichimlik suvi ham muammo. Mahalladagilarning aytishicha, quduqlardan toza suv chiqmaydi. Ko‘pchilik ichimlik suvini sotib oladi.

Savol tug‘iladi: mazkur mahalladagi 217 ta kam ta’minlangan oila qanday qilib kambag‘allikdan chiqariladi? Hududda ish o‘rni yaratish muammo, chorvachilik tavakkalchilik degani. Boquvchisini yo‘qotgan va nogironlarni ham kunlik ishga chiqarish kerakmi?

Aslida, bu muammoning yechimi juda oddiydek. Gap shundaki, mazkur mahalladan o‘tuvchi 4M-553 yo‘li Nurobod tumanini Kattaqo‘rg‘on shahri bilan bog‘lovchi qisqa yo‘l hisoblanadi. Shuningdek, bu yo‘l orqali Kattaqo‘rg‘on suv ombori atrofidagi dam olish maskanlariga borish mumkin. Demak shu ko‘cha asfalt qilinsa, 7 qishloq aholisining hayotini o‘zgartirish mumkin. Doimiy qatnov yo‘lga qo‘yilgan ko‘chada mahalliy aholi maishiy xizmat shoxobchalarini ochishi, tamaddixonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishi mumkin. Bu suv ombori atrofidagi dam olish maskanlari bilan bog‘liq tadbirkorlikka qo‘shilish imkonini ham beradi. Ammo negadir mas’ullar tumanning qon tomiridagi bu “tromb”ni olib tashlab, hududni sog‘lomlashtirishga shoshilmayapti.

— Ko‘chamiz 2023-yil dasturga kirgan, lekin ta’mirlanmayapti, - deydi rais. – Shag‘al yotqizishgandi, ammo bu yo‘lda transport harakatlanishini yanada murakkablashtirdi. Shu yil muammomiz hal bo‘ladi, deb umid qilgan edik. Mas’ullar ko‘chaning boshidan 2,8 kilometrini asfalt qilib, yana ishni to‘xtatib qo‘yishdi. Odamlarimiz qiyinchiliklardan charchashgan.

QANOAT QILIB EMAS, YAXSHI YASHASH KERAK

Bu tumandagi muammosi alohida yondashuvni talab qiladigan yagona mahalla emas. Ittifoq, Qilichli, Olg‘a, Chorvador, O‘rtado‘z, Buloqboshi, Arabota singari markazdan olisroqda joylashgan qator mahallalar ham nimagadir ixtisoslashtirilishi, hech bo‘lmaganda, yo‘li ta’mirlanib, odamlarining ishga qatnashi uchun sharoit yaratilishi lozim. Shunda hududlarning jozibadorligi ortadi, insonlar ham ertangi kuniga ishonch bilan harakat qiladi.

Taassurotimiz bo‘yicha, hozir nurobodliklarga boriga qanoat qilib, yaxshi yashang, deyilayotgandek. Lekin ularning bori boshqalarning yo‘g‘i. Aslida suvsiz, gazsiz, yo‘lsiz yerlarda yashab, mardikorlik qilib bo‘lsa-da, ro‘zg‘or qilishning o‘zi katta qahramonlik. Joylarda chiroyli uylarni ham ko‘rdik. Bu uyning egasi qayerda ishlaydi, deb so‘rasangiz, yo xorijda, yo boshqa tumanda ekanligini aytishadi. Musofirchilikda ham topganini uyiga, Nurobodiga yuborayotgan odamlarni boqimanda, deb bo‘lmaydi. To‘g‘ri, bundaylarning daromadi “baza”da ko‘rinmas, lekin bu ularning muammosi yoki aybi ham emas. Hisobotimiz to‘g‘ri bo‘lishi uchun kimdir 2-3 million so‘mlik maoshli ishga joylashib, kambag‘allik ostonasida qolishi kerakmi? Shunday ekan, muammoni yechish uchun unga boshqa tomondan qarashni, tanganing har ikki tomonini ko‘rishni o‘rganishimiz kerak. Ayniqsa, Nurobod sharoitida.

Asqar BAROTOV,
“Zarafshon”
muxbiri.

Yangi turizm obyektlari ko‘paymoqda, imkoniyatlar – chi?

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida viloyat turizm boshqarmasi tomonidan Samarqand shahri va tumanidagi yangi turizm obyektlariga info-tur tashkil etildi.

Dastlab 2023-yil 16-20-oktabr kunlari Samarqandda o‘tkazilgan BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi doirasida Samarqandda tashkil etilgan Xalqaro turizm akademiyasi faoliyati bilan tanishildi.

– Avvalo qayta tayyorlash kursini tashkil etib, turizm yo‘nalishida dars berayotgan 20 nafar o‘qituvchi malakasini oshiramiz, - deydi akademiya direktori vazifasini bajaruvchi Akmaljon Odilov. - Buning uchun Butunjahon turizm tashkilotidan mutaxassislar jalb qilinib, amaliy va nazariy darslar tashkil etiladi. 2024-yilning yanvar oyidan ushbu tashkilot hamkorligida yana 200 nafar yoshlar bir oydan bir yilgacha qisqa muddatli kurslarda o‘qitiladi. 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab akademiyada davlat buyurtmasi asosida bakalavr va magistratura yo‘nalishlarida o‘qish mumkin bo‘ladi. Darslar xalqaro top darajadagi xorijiy oliy ta’lim muassasalari hamkorligida qo‘shma ta’lim shaklida olib boriladi.

Akademiya bitiruvchisiga hamkor ta’lim muassasalari tomonidan tan olingan sertifikat beriladi. Har bir modulni tugatgandan so‘ng talabalar xususiy sektor hamkor kompaniyalarida amaliyot o‘tash orqali tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston akademiyaga o‘quv dasturlarini mahalliy sharoitga ko‘paytirish va moslashtirish, o‘qituvchilarga trening o‘tish, ularning malakasini oshirish dasturlari orqali mentorlar tayyorlashga ko‘maklashish, loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarda ko‘maklashadi. Talabalarni ishga joylashtirish, dasturlarni takomillashtirish va moslashtirish, dasturlarni targ‘ib qilishda yordam beradi.

OROL DENGIZI MUAMMOLARI DUNYO RASSOMLARI NIGOHIDA

«Ipak yo‘li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qoshidagi Art-rezidensiyasidamiz. Bu yerda hozirda “Orol dengizi” va “Zamonaviy tasavvur” nomli ko‘rgazmalar tashkil etilyapti. San’atshunos Ulug‘bek Salomovning aytishicha, o‘ndan ortiq davlat rassomlari Samarqandga taklif etilgan va Orol dengizi muammolariga bag‘ishlangan ko‘rgazma doirasida Qoraqalpog‘istonga safar uyushtirilib, asarlar yaratilgan. Tasviriy san’at ustalari tomonidan yig‘ilgan kolleksiya va rasmlar Art-rezidensiyasiga sovg‘a qilingan. Misol uchun, latviyalik ayol Orol dengizi atrofida yashayotgan aholining turmush tarzini kuzatib, saksovul, supurgi va tuzni olib kelgan. Ya’ni, odatda o‘zbek xonadonlarida odamlar erta tongda hovlisi va ko‘chalardagi chiqindilarni supursa, Orol dengizi atrofida yashovchilar har kuni yon-atrofni tuzdan tozalaydi. Bularning barchasi dunyoning eng mashhur rassomlari ko‘rgazmasida aks etgan.









BOG‘IBALAND MAHALLASINING TURIZM IMKONIYATLARI KENGAYMOQDA

Samarqand shahridagi Bog‘ibaland mahallasi o‘tgan yil mamlakatimizda ilk turistik mahalla maqomini oldi va bog‘ hududida 20 ga yaqin dam olish maskanida degustatsiya uchun milliy uslubdagi joylar tashkil etildi. Bog‘ibaland Sohibqiron Amir Temur asos solgan va bugungacha saqlanib qolgan mashhur 12 bog‘dan biri. U eski Ko‘hak, hozirgi Cho‘ponota tepaligining yon bag‘rida, shaharning shimoliy qismida, Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan. “Boburnoma”da mazkur hududda Amir Temurning suyukli nabirasi, Mironshohning qizi Og‘abegimga atab “Bog‘ibaland” bog‘i barpo etilgani va unda to‘kin anjirzorlar borligi yozilgan. Hozir ham bog‘ning saqlanib qolgan qismi go‘zal tabiati, musaffo havosi, shirin anjiriyu uzum, olmalari bilan mashhur. Shuning uchun bu yerga mahalliy va xorijlik sayyohlar ko‘p keladi.

- Mahallamizda 4885 nafar aholi yashaydi, - deydi Bog‘ibaland mahallasi hokim yordamchisi Akmal Ismoilov. – Drayverimiz savdo va xizmat ko‘rsatishga asoslangan. Mahallamizga turizm mahallasi maqomining berilishi imkoniyatlarimizni yanada kengaytirdi. Xususan, hududda piyoda, velosiped, elektromobil, velomobil, otda sayr qilish uchun sharoit yaratildi, mehmonlarning qulay harakatlanishi uchun yo‘l ko‘rsatkichlari, stella va bog‘ xaritasi o‘rnatildi. Mahallaning barcha uchun qulay joyida turizm axborot markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, zarur ma’lumotlar joylashtirildi.

Mahallamizdagi 40 gektar anjirzor to‘rtta fermer xo‘jaligiga biriktirilgan bo‘lib, undan 75 ta oila foydalanmoqda. Anjir daraxtlarini parvarishlash, hosilni yig‘ish jarayoni bilan sayyohlarni tanishtirish, mevadan tatib ko‘rishlari uchun sharoit yaratilgan. Hozirda mahallamizga keluvchi sayohlar talabi va fuqarolarning taklifiga ko‘ra, mehmon uylarini ko‘paytirish harakatidamiz.

SOHIBQIRON BARPO ETGAN ANJIRZORDAN QANDAY FOYDALANILYAPTI?

Anjir juda tez buziladigan meva. Daraxtdan uzib olinganidan keyin ko‘pi bilan 8-10 soat turishi mumkin. Boshqa mevalar kabi sovutkichda saqlab bo‘lmaydi. Shu bois anjirni eksport qilish qiyin. Xo‘sh, Amir Temurning Bog‘ibaland bog‘ida mahalla aholisi tomonidan yetishtirilayotgan anjirlar qayerga, qanday sotilyapti?

- Sohibqiron Amir Temur bobomiz Samarqandga anjir urug‘larini olib keltirgani haqida ota-bobolarimizdan ko‘p eshitganmiz, - deydi Hoji bobo Majidov. - Anjir urug‘lari bobomiz barpo etgan yetti bog‘ga ekiladi, lekin faqat Bog‘ibaland mahallasida anjir unib chiqadi. Chunki shimoldan Zarafshon daryosining namligi, g‘arbdan Cho‘ponota tepaligining issiqligi anjir yetishtirish uchun mos iqlim. 40 gektar bog‘ning har bir gektarida 100 tupdan anjir bo‘lib, uni yetishtirish avloddan-avlodga o‘tib kelyapti. Bog‘ning 10 gektari bizga biriktirilgan va hozir to‘rtinchi avlodimiz shu anjirzorda mehnat qilib kelmoqda. Sariq anjir Bog‘ibaland brendi hisoblanadi va yiliga ikki marta hosil beradi. Birinchi hosilni bahor oylarida eski novdadan olyapmiz. Ikkinchi hosilni yangi novdadan avgust oyida olishni boshladik va jarayon oktabrgacha davom etadi.

“KONIGIL-2” LOYIHASI ISHGA TUSHIRILADI

2020-yilda Samarqand tumanidagi Konigil qishlog‘iga ilk turizm qishlog‘i maqomi berilgan edi. Mana, oradan besh yil o‘tib, Konigil qishlog‘ini kengaytirish ishlari boshlandi va loyihaning ikkkinchi bosqichida yangi sayyohlik yo‘nalishi ochilishi, mehmon uylari hamda hunarmandchilik markazlari bunyod etilishi ko‘zda tutilgan.

- Loyihaning umumiy qiymati 45 milliard so‘m bo‘lib, 22 gektarni tashkil qiladi, - deydi viloyat turizm boshqarmasi mas’ul xodimi Dilshod Sa'dullayev. - Maskanda 72 ta lot orqali mehmonxonalar, uy mehmonxonalari, savdo rastalari, hunarmandchilik ustaxonalari, milliy uslubdagi umumiy ovqatlanish shoxobchalari, dam olish maskanlari, uzunligi 2,5 kilometr bo‘lgan velo hamda 3,5 kilometr piyodalar yo‘laklari quriladi. Viloyat hokimining taklifiga ko‘ra, bir guruh tadbirkorlar hamkorligida hozirga qadar Samarqand shahridan oqib o‘tuvchi Obi Rahmat, Siyob ariqlarining atrofini tozalash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Obi Rahmat, Xo‘ja Doniyor mahallasi aholisi, shuningdek, «SFX» qurilish korxonasining 100 ga yaqin ishchilari Xo‘ja Doniyor majmuasidan akademik Vohid Abdullayev ko‘chasigacha bo‘lgan 2 kilometrlik hududni tozalab, ariqning ikki tomonidan 4 metrlik velo va piyodalar yo‘laklari qurish ishlarini yakunladi. Majmua atrofidagi 400 metrlik devorto‘siq olib tashlandi. 185 dona tungi yoritish chiroqlari va 80 dan ziyod o‘rindiq o‘rnatilib, Siyobcha kanalining 11 kilometr qismi obodonlashtirildi.

“LAVANDA FARM” BOTANIKA BOG‘IGA AYLANTIRILADI

Samarqandlik tadbirkor Server Osmonov 2017-yilda shahar markazidan 4 kilometr uzoqlikda “Lavanda farm” bog‘ini tashkil qilgan. U bir gektar maydonda lavanda o‘simligini o‘stirmoqda.

- Hozirda bu yerda ekskursiyalar, gulchilik bo‘yicha mahorat darslari, fotosessiyalar, pikniklar va oilaviy bayramlar o‘tkazilmoqda, - deydi “Lavanda farm” bog‘i ish yurituvchisi Noylya Bagautdinova. - Biz lavandadan guldastalarni yig‘amiz, quritilgan gullar, xushbo‘y yostiqlar, lavanda choyi qoplarini tayyorlaymiz va bu yerga kelgan sayyohlarga shifobaxsh, tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega mahsulotlarni, turli dorivor o‘simliklarni sotamiz. Kelajakda mahsulotlarimizni xorijga ham sotishni va bu joyni 100 dan ortiq o‘simlik turlariga ega bo‘lgan botanika bog‘iga aylantirishni reja qilganmiz.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

SAROSIMA

Isroil maxsus kuchlari Hizbullohga tegishli bo‘lgan aloqa vositalarini: peyjer, ratsiya, motoskuter va boshqa vositalarini portlatishi butun dunyoda katta rezonans keltirdi. Ayniqsa, harbiylar va harbiy rahbarlar Isroilning bu operatsiyasidan keyin "Isroil harbiy harakatlarda o‘zining texnologik rivojlanishi bilan urush texnologiyasida yangi sahifa ochgani" haqida gapirishmoqda. Yaqin Sharqdagi barcha davlatlar, harbiy kuchlar va turli guruhlar o‘zlarida bor bo‘lgan aloqa vositalaridan shubhalana boshlagan va qayta tekshiruvga o‘tgan, lekin bu ham katta mablag‘ va kuch talab qiladigan ishdir. Isroilga yaqin hududlarda yashaydigan davlatlardagi aholida nafaqat aloqa vositalaridan, hatto choy qaynatadigan choynaklardan ham, maishiy texnikalardan, hatto quloqchinlarning portlab ketishidan ham cho‘chish kuzatilmoqda.

Albatta, ko‘rilgan va dunyo matbuotiga chiqqan kadrlarda Isroil o‘zi nishonga olgan odamlar bilan bir qatorda, oddiy aholi ham bu portlashlardan jabr ko‘rganini ko‘rish mumkin. Voqealar rivoji kuzatilar ekan, bu ishga Isroil uzoq vaqtdan beri tinimsiz va jiddiy tayyorgarlik ko‘rganini va bu borada o‘ta maxfiy ishlar olib borganini ko‘rish mumkin bo‘lmoqda. Yani, Isroil o‘zlariga dushmanlik qilmoqchi bo‘lgan guruhlarga va davlatlarga ularni jiddiy shaklda sarosimaga soladigan texnoqo‘rquv solib qo‘ydi. Lekin shu bilan birga, Isroil o‘z mahsulotlarini sotib oladigan mamlakatlarni ham tashvishga soldi. Negaki, xavfsizlik borasida jihozlar eng ko‘p Isroildan sotib olinadi. Malumotlarga qaraganda, Hizbullohning peyjerlar uchun buyurtmasi haqida malumot olgan Isroil maxsus kuchlari bu mahsulotlar tayyor bo‘lguncha va tayyor bo‘lgundan keyin, logistika davrida unga maxsus portlovchi moddalar joylashtirgan. Zotan, Isroil bunday hamlalarni oldin ham qilmagan emas.

Isroilning kiberhujumlari haqidagi eng mashhur va ilk voqeasi bundan bir qancha yillar oldin, Eron o‘zining yadro dasturini tezlashtirgan davrda kuzatilgandi. Isroil o‘zining bu kiberhujumi paytida Eronning uranni boyitish, ya’ni uran 238 ni uran 235 ga aylantirishga moslashtirilgan stansiyalariga uzoqdan kirib, bu dasturni ishga yaramaydigan holga keltirgani va shu bilan Eronning uranni boyitish dasturini bir necha o‘n yillarga uzoqlashtirib yuborganida ko‘rgandik. O‘sha paytda ham dunyo jamoatchiligi Isroil bu ishni qanday amalga oshirganini bilgach, hayratda qolgandi. Buning orqasidan sabablari hali ham ma’lum bo‘lmagan. Ismoil Haniyaning Erondagi mehmonxonada o‘ldirilishi va hali uning joyi sovimasdan Isroilning uzoq masofadan aloqa



vositalarini portlatishi dunyo matbuotidan tushmay qoldi. Bu esa Isroil yana qanday texnoqudratga ega, u yana qanday amallar bajarishi mumkin, uning texnologiyasi kirmagan joy bormi, degan savollarni o‘rtaga chiqardi. Lekin bu savollarga Isroilning o‘zidan boshqa hech kim javob berishga qodir emas.

Reuters tarqatgan xabarlarga qaraganda, Hizbulloh lideri o‘z tashkilotidagilarga bundan yetti oy oldin maxsus jihozlar va telefonlardan foydalanishni taqiqlagan. Lekin keyinchalik bu qarorlaridan qaytib, yana jihozlardan foydalana boshlashgan. Agar o‘sha taqiq amalda bo‘lganda edi, balki Isroil o‘zining bu kiberhujumini hali amalga oshirmagan bo‘lardi degan fikrlarni yuzaga keltiradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Hizbullohda texno va kiberhujumlar haqida to‘liq ma’lumot yo‘q yoki bo‘lsa ham "bizga hech nima qila olmaydi" degan tushunchada bo‘lishgan. Bu esa ularning texnologik sohada qanchalik orqada ekanidan ham dalolat beradi. Gap shundaki, yuksak texnologiyaga ega bo‘lgan davlatlar onlayn bo‘lgan har narsadan qurol sifatida foydalanishlari mumkin bo‘lgan davrda yashayapmiz.

XAVFLI CHORSHANBA

Livan hukumati va Eron yordami bilan harakat qiluvchi Hizbulloh bu portlashlarda Isroilni asosiy aybdor qilgan, lekin bunday murakkab amaliyotlar bo‘yicha uzoq yillik tajriba va tarixga ega bo‘lgan Isroil hukumati bu borada hech qanday izoh bermagan. Isroil Mudofaa vaziri Yav Gallant chorshanba kuni qo‘shinlar bilan gaplashar ekan, elektron qurilmalar portlashi haqida gapirmagan bo‘lsa ham biroq Isroil armiyasi va xavfsizlik idoralarining ishini yuqori baholarkan, "urushning yangi bosqichi arafasida turibmiz", deya bayonot bergan.

Chorshanba kuni portlagan ratsiyalar haqida ARga o‘z shaxsini ochiqlamasdan gapirgan Hizbulloh a’zosi, o‘sha kuni Bayrut shahridagi bir qancha hududlarda uylarda turgan quyosh batareyalari ham portlagani va bundan bir qizcha jarohat olgani haqida ham aytgan. Bu borada keyinchalik Liviya rasmiylari ham ma’lumot tarqatgan.

Hizbullohning omon qolgan azolari bilan gaplashgan bryussellik siyosiy xavfsizlik tahlilchisi Elijax J. Magniyer guruh foydalangan peyjerlar bundan olti oy oldin ularga berilgani, lekin ularning qay yo‘l bilan Livanga olib kelingani aniq emasligini aytgan. Shunday qilib, bu mahsulotni kim va qachon ishlab chiqargani noma’lum bo‘lib qolmoqda, chunki hech bir ishlab chiqaruvchi buni bo‘yniga olmayapti. Osakada joylashgan va shunday qurilmalarni ishlab chiqarishga moslashgan Icom kompaniyasi mutaxassisi haqiqatan 2004-2014-yillar davomida ular Yaqin Sharq davlatlari uchun ratsiya va aloqa jihozlari ishlab chiqarganini, lekin bunga o‘n yildan oshib ketgani uchun ular ishlab chiqargan mahsulotning quvvat umri ham tugagani, bundan tashqari, portlagan mahsulotlarda ularning firmasiga tegishli bo‘lgan gologramma yorlig‘i ham yo‘q ekanini aytib o‘tgan.

Chorshanba kungi portlashlarning o‘ziga xos xususiyatlari hali ham noaniq. Ammo ko‘proq elektron qurilmalarning portlashi haqidagi xabarlar Livanning taminot zanjiriga odamlarga zarar beruvchi bundan ham ko‘proq jihozlar qo‘yilganini ko‘rsatishi mumkinligiga ishora qilmoqda. Shuningdek, bunday soxta qurilmalarni kim ishlab chiqayotgani va kim saqlayotgani haqida xavotirlarni kuchaytiradi.

ASOSIY IZOH: BU OPERATSIYA QANCHA DAVOM ETGAN?

Ushbu hujumni rejalashtirish ancha vaqt talab etsa-da, aniq ma’lumotlar hozircha noma’lumligicha qolmoqda. Hujumning murakkabligi bu uzoq vaqtdan beri razvedka ma’lumotlarini yig‘ish bilan shug‘ullanganidan dalolat beradi, deydi Nyu-York universitetining professional tadqiqotlar maktabi global aloqalar markazining o‘qituvchisi Nikolas Riz. Ushbu kalibrli hujum peyjerlar sotilgunga qadar ularga jismoniy aralashish zarur bo‘lgan ishlarni talab qiladi, deydi u.

Rasmiyning aytishicha, Hizbulloh a’zolari o‘z peyjerlarini texnik xizmat ko‘rsatish uchun yuborib turgan, chunki ular bu aloqa vositalari yaxshi ishlamayotganidan, masalan, signallarni ololmayotganidan shikoyat qilib turishgan. Boshqa holatlarda Hizbulloh azolari xabarlarni yetkazib berishda muvaffaqiyatsizliklar borligini ham aytib kelishgan. Buni ular qurilmalarining bir qismi portlamaganidan ham bilsa bo‘ladi. Balki qurilmalar ta’mir uchun jo‘natilganda ularning ustida ishlangandir degan taxminni ilgari surishimizga ham imkon beradi.

XULOSA

Xo‘sh, texnologiyadagi bu rivojlanish qayergacha borishi mumkin? Texnologik rivojlanish chegarasi bo‘lmagan bir nuqtaga qarab ketib bormoqda, bu insoniyatning zarariga xizmat qiladimi yoki yararigami, bu haqda aniq-tiniq mulohazalar berish juda qiyin. Deyarli har kuni bir yangilik bo‘layotgan texnologiya dunyosidagi o‘zgarishlarga, odamning aqliy tezligi izoh berishga ulgurmay qolyapti. Masala shundaki, texnologiyani o‘z izmida ushlab turuvchi davlat organlari, odamlar va davlatga zarar keltirayotgan dasturlarning oldini olish uchun uni nazorat qiladigan yangi uskuna va dasturlar ishlab chiqarar ekan, qarshi tomon bunday to‘siqlarni yengib o‘tish uchun undan yana bir pog‘ona ustun bo‘lgan dastur va jihozlarni yaratishdan charchamayapti. Bu esa davlat va mutaxassislarning ko‘p energiya va vaqtini olmoqda. Shuning uchun ham ba’zi davlatlarda himoyalash uchun mas’ul bo‘lgan tomon (yani davlat organlari) qarshi himoya uchun yangi texnologiyalarni yaratishdan o‘zini tiya boshlarkan, oxirgi versiya himoya dasturlari bilan ishlashda davom etmoqda. Bunga bank avtomatlarida bo‘layotgan o‘g‘irlik dasturlarini misol sifatida berishimiz mumkin.

Bo‘lib o‘tgan voqealardan umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, Isroil davlati o‘g‘irlanishi kerak bo‘lgan minoralarga avvaldan g‘ilof tikib qo‘ygan va yangi davr urushi bo‘lgan texnologiya urushida uning oldiga chiqish qiyin ekani yaqqol ko‘rinib qoldi.

Fazliddin MADIYEV.

Kun mavzusi

Joriy yilning 20-avgust kuni davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqot”ida ko‘plab tadbirkorlar ishlab chiqarish maydonlari tashkil etish uchun yer maydonlari yo‘qligi tufayli yangi loyihalarni amalga oshira olmayotganligi ta’kidlangandi. Biroq ayrim tadbirkorlar auksion orqali yer sotib olgach, unga shaxsiy mulk sifatida qarab, qarovsiz holatga tashlab qo‘yayotgani ham uchramoqda.

Tadbirkorga sotilgan obyekt nazoratda ushlab turiladigan mulk emas

Viloyatda xususiylashtirish dasturlariga asosan, 2023-yilda 53 ta, 2024-yilning birinchi choragida 19 ta bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari auksion orqali sotilgan. O‘rganish jarayonida ushbu obyektlarning 57 tasi foydalanilmasdan bo‘sh turganligi aniqlandi.

Xususan, Samarqand shahrida 9 ta, Past Darg‘omda 8 ta, Kattaqo‘rg‘on tumanida 7 ta, Oqdaryo va Payariqda 5 tadan, Ishtixon va Narpayda 4 tadan, Urgut va Paxtachida 3 tadan, Jomboy, Bulung‘ur tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahrida 2 tadan, Nurobod, Samarqand va Toyloq tumanlarida 1 tadan obyektdan foydalanilmayapti.

Misol uchun, Jomboy tumani Tut mahallasida joylashgan parrandachilik fermasi va yordamchi xo‘jalik binosi “SYNTHESIS METHANE INVEST” MChJga 1 milliard 393 million so‘mga, Nurobod tumani Amir Temur mahallasida bo‘sh turgan bino va inshootlar 144,6 million so‘mga, Toyloq tumani Tepaqishloq mahallasidagi bo‘sh turgan choyxona binosi 114,5 million so‘mga, Payariq tumani Madaniyat mahallasida bo‘sh turgan bino 298,3 million so‘mga sotilgan. Biroq bugunga qadar ushbu obyektlar qarovsiz holatda qoldirilgan, ulardan samarali foydalaniilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga muvofiq, viloyatda 2023-yil boshidan 2024-yil 1-aprelga qadar auksion savdolarida umumiy maydoni 211,4 gektar bo‘lgan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan 1663 ta bo‘sh turgan yer uchastkasi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida sotilgan. Shundan, 1596 ta obyektdan foydalanilmayapti, 1262 tasida esa qurilish ishlari umuman boshlanmagan.

Payariq tumani Xalqobod mahallasi hududida tikuvchilik korxonasi tashkil etish maqsadida fuqaro M.M. tomonidan sotib olingan 3 gektar yer maydoni, Nurobod tumani Mehnatkash mahallasida qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida fuqaro Sh.A. tomonidan sotib olingan 1,1 gektar yer maydoni hamon foydalanilmasdan qolmoqda.

Investitsiya majburiyatlari bilan 2016-2020-yillarda “nol” qiymatda sotilgan davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlariga asosan, investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish shartlari bilan 70 ta bo‘sh turgan davlat mulki obyekti sotilgan. O‘rganish jarayonida 18 ta yoki sotilgan obyektlarning 26 foizi bugungi kunda faoliyat ko‘rsatmayotgani aniqlandi.

Bo‘sh turgan bino va yer maydonlaridan unumli foydalanib, tadbirkorlik faoliyatini yuritish aholi daromadini oshirish, bandligini ta’minlash, qo‘shilgan qiymat solig‘i yaratish degani. Yer, bino va inshootni sotib olishda ana shu masalalar hisobga olinganmi yoki avval boshidan boshqa maqsad ko‘zlanganmi?

Salohiddin SULTONOV,
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

SAMARQAND VILOYAT “AGROKIMYOHIMOYA” HAJ KREDITORLARI DIQQATIGA!

Samarqand viloyat “Agrokimyohimoya” HAJ balansida bo‘lgan savdoga chiqarilgan, biroq ikki oy mobaynida sotilmagan jamiyatga tegishli maxsus texnikalar, inventarlar va boshqa asosiy vositalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.08.2019-yildagi 704-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 24-bandida belgilangan navbatga rioya etgan holda jamiyat kreditorlariga aktivlarni baholangan qiymatida mulk etib qabul qilinishi taklif etiladi.

Samarqand viloyat “Agrokimyohimoya” HAJ tugatish komissiyasi. Murojaat uchun: Samarqand shahri Spitamen shohko‘chasi, 153-uy. Telefonlar: +99866-231-01-30, +99890-271-78-70.

* * *

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2023-yil 3-mayda 304-reestr raqami bilan ro‘yxatga olingan “SAFEDI” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi Bolalarning dam olishini va sog‘lomlashtirilishini tashkil etish departamenti kengashining 2024-yil 18-sentabrdagi 2-47 “S” sonli qaroriga asosan tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e’tirozlar gazetada e’lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Korxonaning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand tumani Sulfakabutak mahallasi, Amir Temur ko‘chasi 27-uy.

Korxonaning soliq to‘laydigan identifikatsion raqami (STIR): 207354221.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Maslyakova Marina Muxtarovnaga (2021-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Gorshko Tamara Ivanovnaga (2019-yil 28-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Pulatov Sobir Xolmuradovichga (2012-yil 23-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Axmedov Orzikulga (2023-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy ko‘chasi.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Saydametova Sidiqaga (2014-yil 15-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Abdualimova Nozima Ismatillayevnaga (2024-yil 18-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Shadiyeva Istatga (2000-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Rafiyeva Nigora Oktamjonovnaga (2019-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko‘chasi, 5-uy.

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahatov O‘lmas To‘rayevich notarial idorasida marhum Xushvakov Rayimjan Shermatovichga (2023-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahatov O‘lmas To‘rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko‘chasi, 26-uy. Telefon +99890-502-69-86.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Sattarov Mardonkul Nakshibandovichga (2017-yil 18-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Gafarov Maxamat Isayevichga (2021-yil 24-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy, 21-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Radjabov Ismankul Mamadkulovichga (2024-yil 29-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “CHINESE BEST FOODS” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311338695) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Toyloq tumanidagi “ZARAFSHON BROYLER” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305710164) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi Umarova Istat Pardayevna va sotib oluvchi Xotamov Iskandar Barotovichlar o‘rtasida Samarqand shahri Firdavsiy ko‘chasidagi 2119,0 kv.metr umumiy foydalanishdagi er maydonida joylashgan 38/3 raqamli uy-joyning 33/100 qismi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasidan 2022-yil 19-oktabrda tasdiqlanib, Ksh 083992 SA blankada tuzilgan, 202201761001684 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi Umarova Lola Shavkatovna va sotib oluvchi Xotamov Iskandar Barotovichlar o‘rtasida Samarqand shahri Firdavsiy ko‘chasi, 38-uy-joyning 12/100 qismi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2022-yil 11-oktabrda tasdiqlanib, Ksh 099767 SA blankada tuzilgan, 202201714004496 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma‘muriyati va kasaba uyushma qo‘mitasi universitet raqamli texnologiyalar bo‘limi xodimi Xurshida Umurzoqovaga va 1-son talabalar turarjoyi pedagog-tarbiyachisi Faxriddin Umurzoqovga onasi

QANDOLAT ayaning

vafoti munosabati bilan ta‘ziya izhor etadi.



TARAG‘AY g‘ori qa’rida qanday xazina yashiringan?

Rivoyatlarga ko‘ra, Amir Tarag‘ay xizmatkorlariga 400 bosh qo‘yni Samarqandning Qir bozorida sotib, pulini olti yoshli Amir Temur orqali berib yuborishni buyuradi. Ammo yosh Temur bu pullarni bozorda tilanchilik qilib yurgan yetim-esirlarga tarqatib yuborgan. Ortga qaytish fursati yetganida esa u otasining qahridan qo‘rqib, Hisor tog‘lari bag‘rida joylashgan, chiqish mushkul bo‘lgan g‘orga qochib ketadi. Askar va qishloq ahlining bir necha kunlik qidiruvi samara bermagach, bir cho‘pon tog‘ cho‘qqisidagi faqat cho‘ponlar biladigan yashirin g‘orga borib, Temurni topadi va ortga qaytaradi. O‘shandan beri mahalliy aholi bu g‘orni Tarag‘ay yoki Amir Temur g‘ori deb ataydi.

Tariximiz turli rivoyat va afsonalarga boy. Ajdodlarimizning sarguzashtu qahramonliklari, pirlarning karomatlari, yashirilgan xazinalar - og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan turli hikoyalar kim uchundir ertak, kimlar uchundir chindir. Xususan, yurtimizda nomi sohibqiron Amir Temur bilan bog‘lanadigan bir nechta g‘or borki, ular haqida ham bir-biridan qiziqarli afsonalar aytiladi. Biz ana shunday afsonalardan birini "tekshirib ko‘rish" maqsadida Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumaniga, Tarag‘ay tog‘idagi o‘sha mashhur g‘orga yo‘l oldik.

TOG‘ ETAGIDAGI QISHLOQ

Erta tong, kun yorishishi bilan yo‘lga otlandik. Bizga Markaziy Osiyo bo‘yicha turizm mutaxassisi Oybek Ostanov hamda uning yordamchisi, hindistonlik do‘stimiz Vishnu Vinagayam hamrohlik qildi. Uzoq yo‘l yurib, goh yo‘ldan adashib, soat 11:30 da Chiroqchi tumanidagi Govxona qishlog‘iga yetib keldik. Yo‘l boshlovchimiz shu qishloqdan, 67 yoshli Toji bobo Mo‘minov. Mezbonning qistovi bilan tog‘ga ko‘tarilishdan oldin uning uyiga kirib, nafas rostladik. Shu bahona govxonaliklar hayoti bilan tanishdik.

Biz uchun tog‘, ammo govxonaliklar uchun kichik tepalik hisoblanadigan qiyaliklarda, bir qarashda bir-biriga juda yaqin, lekin yetib borish uchun pastga tushib, yana ko‘tarilish kerak bo‘ladigan “olis”da dona-dona uylar joylashgan. Eng dilga yoqadigani, hududda atrofga salqinlik ulashib turuvchi daraxtlar ko‘p. Ayniqsa, shahar g‘ala-g‘ovuridan chiqib kelganlar uchun bu yerlarning havosi yanada musaffo va yoqimli tuyuladi.

Qishloq odamlari ham ularni o‘rab turgan tog‘lar singari vazmin va bag‘rikeng. Mehmonlarni juda hurmat qilishadi. Ekspeditsiyamiz davomida kimga murojaat qilmaylik, barcha ochiq chehra bilan, ba’zan o‘z yumushini qoldirib bo‘lsa-da, bizga ko‘mak berishga harakat qildi. Bir so‘z bilan aytganda, olijanob insonlar yashaydigan qishloq.

Govxonaliklarning asosiy daromadi chorvachilikdan. Har bir xonadonning 10-15 tacha qo‘y-echkisi, qoramoli bor. Erkaklar podani navbati bilan toqqa, ikki-uch kunga haydab ketadi. Ba’zi qishloqlarning cho‘poni bor.

Aytganimizdek, bu yerda daraxtlarga mehr bo‘lakcha. Aholi qiyaliklarga ishlov berib, bog‘u rog‘lar yaratgan. 50-100 sotixlab yerni qamrab olgan bunday bog‘lar tog‘ tepasidagi buloqlardan suv ichadi. Terilgan hosil Qalqama bozorida sotiladi. Ko‘pchilik samarqandliklar sevib iste‘mol qiladigan do‘lanalarning asosiy qismi shu yerlarda yetilar ekan. Lekin odamlarning aytishicha, keyingi yillarda havo haroratining ko‘tarilib, buloqlar suvi kamayganligi sababli tirikchilik qilish ham murakkab bo‘lib bormoqda.

AMIR TEMUR VA G‘OR AFSONASI

Tog‘ning biz qidirayotgan g‘orga chiqish joyi Govxonadan ikki ovul naridagi Tarag‘ay qishlog‘idan boshlanadi. Vaqtni boy bermaslik uchun tezroq yo‘lga chiqdik. Yo‘l-yo‘lakay Toji boboni gapga solamiz, asosiy savol, anglaganingizdek, g‘ordagi xazina haqida.

— G‘or haqidagi afsonalarni biz bobolarimizdan eshitganmiz, ular esa o‘z bobolaridan, - deya gapni uzoqdan boshladi otaxon. – Qadimgilarga ko‘ra, Amir Temurning yoshligi va askarlik yillari shu yerlarda o‘tgan. U jangchilarini siz ko‘rib turgan tog‘u toshlar orasida tayyorlagan. Biz borayotgan g‘ordan qo‘nalg‘a sifatida foydalanilgan, degan gaplar bor. Demak, qurol-yarog‘ va boshqa aslahalar shu yerda saqlangan, bugungacha qolgan bo‘lishi ham mumkin. Yana bir rivoyatga ko‘ra, Amir Temur tirikligidayoq bu g‘or haqida turli mish-mishlar tarqaladi va sohibqiron shaxsan o‘zi uni ko‘rgani keladi. G‘or ichiga kirib, ne ko‘z bilan ko‘rsinki, unda o‘z choparlari berkinib yotgan bo‘ladi. Nega bu yerdasiz, degan savolga ular “Navbatdagi jangda g‘alaba qozonib, bizni Shahrisabzga xushxabarni yetkazish uchun yuborgan eding. Biz esa yo‘lda to‘xtab, oilamiz bilan ko‘rishdik va kech qoldik. Qahringdan qo‘rqib, shu g‘orga berkindik”, deya javob berishgan ekan.

Otaxonning aytishicha, g‘or bilan bog‘liq rivoyatlar juda ko‘p. Ammo ularning aksariyati avlodlar almashinuvi barobarida unut bo‘lib bormoqda. G‘orning og‘zi ham ilgari gumbazsimon imoratga o‘xshash bo‘lganini aytishadi. Kelib-ketuvchilar bu yerdagi toshlarni olib ketishi oqibatida shakli o‘zgarib, hozirgi ko‘rimsiz holatiga kelgan. Mahalliy aholining aytishicha, bu g‘orga ilgari xazina izlovchilar ham tez-tez kelib turgan. Lekin u yerdan biror nima topilgani yoki g‘orning oxirigacha borilgani haqida ma’lumot yo‘q.

GO‘ZALLIK VA XAVF-XATAR YONMA-YON

O‘nqir-cho‘nqir, toshli tor yo‘llar orqali Tarag‘ay qishlog‘iga yetib keldik. U yog‘iga transport o‘ta olmaydi. Toqqa ko‘tarilish joyigacha piyoda borishimizga to‘g‘ri keldi. Baxtimizga shu kuni uncha kuchli bo‘lmagan shamol esayotgan edi. Aks holda, tepalikka ko‘tarilish issiq havo sababli yanada murakkab bo‘larkan.

Tepaga qarab harakatni boshladik. Pastdan qaraganda, biz chiqmoqchi bo‘lgan cho‘qqi u qadar uzoq emas edi. Biroq ko‘tarilishimiz barobarida u ham bizdan uzoqlashayotgandek tuyuldi. Agar yo‘l boshlovchi bo‘lmasa, g‘orga borish yo‘lini o‘zimiz topib bora olmas ekanmiz. Yo‘lovchilarni chalg‘ituvchi turli so‘qmoqlar, aylanma yo‘llar bo‘ylab harakat davomida buni tushunib yetdik. Bizga hamrohlik qilganlarning aytishicha, g‘orni ko‘rish uchun ham mahalliy, ham xorijiy sayyohlar tez-tez kelib turadi. Ammo ularning barchasi ham manzilga yetib bora olmaydi. Ko‘pchilik g‘orga yo‘lboshchisiz chiqa olamiz deb o‘ylaydi. Boshqalari toqqa ko‘tarilish mashaqqatiga tayyor emas.

Vaqt tig‘iz, kech tushguncha g‘orga yetib borishimiz kerak. Harakatni tezlatamiz. Lekin har 50-100 metr ko‘tarilgach, to‘xtab, tabiat go‘zalliklari, shundoqqina oyoqlarimiz ostida yastanib yotgan kengliklarni tomosha qilishdan o‘zimizni tiya olmaymiz. Shunday damlarda Amir Temur bobomiz ham shu yerlarda turib, hukmronligi ostidagi yerlarga nazar tashlagandir, shu vaqti ko‘nglidan nimalarni o‘tkazgan ekan degan o‘y-xayollar keladi. Katta xarsang toshlar soyasida dam olish maroqli. Onda-sonda yo‘limizda hali mevasi pishib yetilmagan do‘lana daraxtlari, archalar chiqadi.

Asosiy qiyinchiliklar dengiz sathidan 1400 metr balandlikka ko‘tarilganimizdan keyin boshlandi. Shu yerdan yo‘l yanada qiyalashdi. Oyog‘ingiz toysa, yaxshilik bilan tugamaydi. Bunday joylardan sekinroq, yo‘l boshlovchilarning ko‘rsatmalariga amal qilgan holda o‘tdik. Jarliklar tepasida turish xavfli, ammo u yerdan nigohingizga ochiladigan tabiat manzalarini tariflash qiyin.

Soat 16:47 da cho‘qqiga yetib keldik. Bu yerda bizni yana bir sinov kutib turgan ekan. Gap shundaki, g‘orning og‘zi jarlik bo‘yida joylashgan. Unga kirish uchun endi tepadan pastga, jarlikka tushish kerak edi. Belga arqonni bog‘ladik. Vahimali jarayon. Ammo maqsadga erishishning boshqa yo‘li yo‘q. Eng oxirgi nuqtada taslim bo‘lsak, ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz tugagan hisoblanadi.

ZIMISTONDA, NOMA’LUMLIK SARI

Mustahkam toshlarga tirmashib, bir amallab pastga, g‘or og‘ziga tushdik. Bu yerda nafas rostlab, atrofni tomosha qilish, keyingi harakatlar rejasini tuzish uchun yetarlicha joy bor edi.

G‘orning kirish qismi torroq. Aytmoqchi bo‘lganimiz, jussasi kattaroq odam kira olmaydi. Umuman, boshqalar uchun ham bu oson yumush emas. Amallab tor yo‘lakdan o‘tdik. Shu yerda quyosh nurlari chekinadi, yorug‘lik ko‘rmagan yangi bir olam boshlanadi. Birinchi bosqichdan keyin yo‘lak ancha kengaydi. U yerda qazilma ishlari olib borilganligi, kimlardir rostdan ham xazina qidirganligidan dalolat beruvchi izlar bor. Qancha chuqurroq kirib borsangiz, g‘or havosi shuncha nam va salqin bo‘lib boradi. Tepadan tomayotgan suv tomchilari yillar davomida toshlarda antiqa naqsh va sumalaklarni shakllantirgan.

G‘orning yana bir tor qismidan o‘tganimizdan keyin yo‘lak ikkiga bo‘lindi. Yo‘l boshlovchimiz o‘ng tomonga yurishimiz kerakligini, chapdagisining oxiri berk ekanligini aytdi. Chapga yurib, yana bir kishi zo‘rg‘a sig‘adigan yo‘lakka duch keldik. Undan o‘tib olsangiz, yana kenglik. Bu yerda ko‘rshapalaklar ko‘p ekan. G‘orning qorong‘uligi va salqin havosi shu kabi mavjudotlar uchun ayni muddao.

Biz yana bir necha bosqichli qiyin o‘tiladigan joylardan o‘tib, 300 metrcha g‘or ichiga kirishga muvaffaq bo‘ldik. Ammo yana oldinga yurish uchun qiyalikdan pastga tushish kerak edi. Yonimizda arqonimiz qolmaganligi, qolaversa, jamoa ham toliqqanligi uchun shu yerdan qaytishga qaror qildik.

Mahalliy aholi ham hali g‘orning oxirigacha bormagan ekan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, unda qanday sir-sinoatlar yashiringani hamon jumboq...

Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra, qadimda yovdan chekingan bir nechta askar g‘orning u boshigacha borgan va Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi Mironqul qishlog‘idan chiqqan. Ammo hozirgi zamonda hech kim g‘orning oxirigacha bora olmaganligi sababli buni tasdiqlashning imkoni yo‘q. Faqat qiziq bir fakt bor: Mironqulda ham qarama-qarshi tomonga ketgan, oxiri yo‘q g‘or bor deyishadi. Bugungi kunda har ikki g‘orga sayyohlar borib turadi.

Darhaqiqat, yurtimiz noyob maskanlarga boy va ularning ko‘pi hali to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa ularning jozibadorligini yanada oshiradi.

Qashqadaryodan ana shunday ajoyib taassurotlar bilan qaytarkanmiz, bu kabi sayohatlarni yana davom ettirish, diyorimizning turli go‘shalariga qiziqarli ekspeditsiyalar tashkil etishni niyat qildik.

Anvar MUSTAFOQULOV,
Asqar BAROTOV,
"Zarafshon" muxbirlari.
(Samarqand-Chiroqchi-Samarqand)

Qutlov o‘rnida

MEHR-OQIBATDAN ZIRHLANGAN JONMAN



Toshpo‘lat TUGALOV (Urxun) 1964-yilda Urgutning Yangiqishlog‘ida tug‘ilgan. SamDU filologiya fakultetini tugatgan.
Urgutdagi bosmaxonada harf teruvchi, SamDUda kafedra laboranti, viloyat teleradiokompaniyasida muharrir, katta muharrir, bosh muharrir, MTRK “Diyor” kanalining viloyat bo‘yicha katta muharriri bo‘lib ishlagan. 2017-yildan buyon O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari.
“Mujda” (2004), “Kechikkan javzo” (2007), “Bir kuni muxbirlar…”, “Qalamni qadrlab…”, “Tanish chehralar” (2017), “Umr ziynati” (2018), “Qahramonlar mangu yashaydi” (2020), “Surur” (2023), “Umr karvoni” (2023), “Tong yulduzi bolalari” Shimoliy Amerika xalqlari afsona va ertaklaridan tarjima (2023) kitoblari nashr etilgan. She’rlari rus, ingliz, tojik, qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan. Hamkasbimizni 60 yoshi bilan qutlaymiz!

BOQIY SHAHAR

Shon bilan sha’n bilan mulki nodirsan,
Shohi yulduz tutgan samoviy shahar.
Temurbek, Yalangto‘sh yanglig‘
botirsan,
Poyinga gul to‘shar dunyo har sahar.

Tarixsan, bugunsan, ertasan sobit,
Lojuvard saltanat - hayrat saroyi.
Fotihlar o‘tdilar, qolmadi ma’bud,
Sen borsan, hamisha-Sharqning
chiroyi.

Boqiylik bitilgan taqdir, nomingga,
Aql-zakovatning o‘lmas ehromi.
Azaliy buyuklik, ehtiromingga
Tahsinlar to‘kadi yurakning jomi.

Tikladik yoningda yo‘ldosh,
zo‘r qo‘rg‘on,
Nomladik uni ham "Boqiy shahar" deb.
Seni ulug‘laydi uni ham ko‘rgan,
Siz qo‘hna shaharlar Ona yurtga zeb.

Ne-ne sayyohlarning yakdil iqrori:
"Zaminga sayqalu va jannati yer".
Angladim, mol-mulkdan hunar yuqori,
Peshtoqingda ilm, har g‘ishtingda she’r.

TONGOTAR

Yulduzlar charaqlab chorlar bu kecha,
Osmonning chiroyi ochiq, muhtasham.
Tuyg‘ular to‘lishdi, nur-ziyo ichra
Yig‘ildi suhbatga sayyoralar ham.

Ochildi tuynuklar, mavzu, muddao,
Arirmi Oymomo husnidagi dog‘?!
Aytarmi, ta’birin yerdagi daho,
So‘zlarmi, yuksakka sapchiyotgan tog‘?

Qaraymiz, quyida yog‘du, aksimiz,
Bu sirning ma’nisin ko‘ringiz baham.
Sizga yoqmasmi yo shu’la-raqsimiz,
Quyoshni olqishlab yashaysiz har dam!

Illo, tun ortidan kelaverar kun,
Koinot qonuni to‘kis, mukammal.
Shundanmi, tabiat betakror, durkun,
Men tongni o‘ylayman ajab tun mahal.

Osmonga termulib ko‘zim quvnaydi,
Yurtsevar yuragim zaminga tortar.
Hayrat, xayolimni aqlim quvlaydi,
Savollar javobin berar tongotar.

TO‘RTLIKLAR

Gulshan ichra gulu Gulnoz
raqs etayotir,
Iforni qo‘ying, rangorang
bahs etayotir.
Rohatda tanu jon birla dilim,
Har yonda chamandan bahra
aks etayotir.

* * *

Dovonlar osharkan umr karvoni,
Yuksalar hayotning qadri, har oni.
Mehr-oqibatdan zirhlangan jonman.
Siz borsiz, yengarman hatto yuhoni.

* * *

Shahodat beradi tarix mirzosi,
Vijdonni mahv etar mol-mulk nizosi.
Subutsiz erkagu shallaqi ayol
Da’vosin ostida shayton imzosi.

* * *

O‘tmishda qoldimi, xayrihoh, hotam,
E’zozdan mosuvo murabbiy zot ham.
Insof nafs yemi, vijdon amrsiz,
Sen esa mol uchun tutasan motam.

* * *

Qo‘lingizda toza, oppoq varaqman,
Aslim yashil, siz qulatgan daraxtman.
Amal qilmas Marotoriy degani
Arralarning ovozidan karaxtman.

* * *

Toshni teshar uzluksiz tomchi,
Unga qora bulut ilhomchi.
Sen ham fosiq makriga uchib,
Do‘st ko‘ksiga tushirma qamchi.

* * *

O‘y sursam, bolalik keladi yodga,
Qamchi urganlarim loy, xivich otga.
Yoshlikda orzu, ishq qo‘sh
qanot ekan,
Bugun suyangaymiz, yor, qanoatga.

* * *

Yomg‘irda yashirin shiddati do‘lning,
Quvvati yurakda qavariq qo‘lning.
Rang, bo‘yidan xush bo‘l, ehtiyot,
Tikoni bor aksari gulning.

* * *

Tez aytish bu-aqli a’loga,
Arzi adab, afsus aroga.
Ahdi asl aynimas abad,
Ardoq, aso ato-anoga.

* * *

Ezgu amal, iroda, hohish-
Do‘st, qarindosh ko‘ngliga boqish.
Azm etganga yor bo‘lsin omad,
Bo‘y-bastiga to‘kilsin olqish.

CHO‘P TUSHDI

(Hazil)

Uyqudagi bekamning yelkasi uchib tushdi,
Alvon labidan titroq zulfiga ko‘chib tushdi.

Arg‘imchoq bilan tunda sayr etdimi falakka,
Oyga yetdimikan yo yulduzni quchib tushdi.

Betizgin tuyg‘ularin oshkor etdi chehrasi,
Yonog‘ida gulxan bir yondi-yu o‘chib, tushdi.

Bu nimasi, kunduz xo‘p, kechi ham kuydiradi,
Jonim, yana bir fitna ko‘ylagin bichib tushdi.

Turtdim qattiq, o‘lsin rashk, tushini ko‘rgandayin.
Avaylagan ko‘zimga bir shapaloq-cho‘p tushdi.

Toshpo‘lat URXUN.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 695 nusxada chop etildi. Buyurtma 522. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: Y.MARQAYEV.
Sahifalovchi: A.ISMOILZODA.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda